

## MUHOKAMATUL LUG‘ATAYN ASARIDA SINONIMLAR TAHLILI

*Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi  
Avazova Rayhon*

### Annotatsiya

Maqolada aks etadigan ma'lumotlar Alisher Navoiy qalamiga mansub Muhokamat ul lug'atayn asarida qóllanilgan sinonimlar tahlili va undagi ma'no munosabat shakllari haqida fikr mulohazalar yuritiladi. Uning tilshunoslikda tutgan órni va ahamiyati yoritiladi.

**Kalit sózlar:** asar tili, talqin, tamoyil, shakl, mazmun mohiyati, asarda qóllanilgan sinonimlar, yig'lamaq, ókurmak.

### Kirish

Navoiy „Ikki til muhokamasi“ (Muhokamat ul-lug‘atayn) asarida o‘zbek tilining boyligini, qudratini, o‘sha zamonning adabiy tillari qatoridan o‘rin olishga qodir va haqli ekanligini ilmiy tomondan isbotladi. Asarda o‘zbek (turkiy) va fors tillari unli tovushlar, leksika va morfologiya doirasida o‘zaro qiyoslanadi. [1] Dastlab har ikki tildagi unlilar qiyoslanganda, shoir fors tilida unlilar soni cheklanganligi, o‘zbek tilida esa unlilar bir qancha ma’no farqlovchi variantlarga ega ekanligi va ular o‘zaro uzun-qisqaligi bilan ajralib turishini dalillar orqali ko‘rsatib bergan. Alisher Navoiy o‘zbek va fors tillari leksikasini qiyoslash uchun tabiat manzaralari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, ov jarayoni, hayvon va qushlarning turlari kabi juda ko‘p sohaga oid yuzlab so‘zlarni keltirib, bu so‘zlarning muqobalasiforschada yo‘qligini, forslar ko‘pincha o‘sha o‘zbekcha so‘zlarning o‘zini ishlatishlarini ta’kidlab, o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini har tomonlama ko‘rsatgan. Mana shunday fikrlaridan ayrimlari: „...xo‘blarning ko‘z va qoshlari orasinki, qabog‘ derlar, forsiyda bu uzvning oti yo‘qtur.“. Alisher Navoiy so‘zlarning ko‘p ma’noziligi, sinonimlar jihatidan ham o‘zbek tilining imkoniyati kengligini, ularning she’riyatda turli nozik ma’nolarni ifodalashdagi ahamiyatini (ot, it, tush, yon, yoq, bor, sog‘in, tuz, ko‘k kabi so‘zlar talqinida) ko‘rsatadi. [2] Navoiy grammatik jihatdan ham o‘zbek tili fors tiliga nisbatan ba’zi imkoniyatlarga ega ekanligini tahlil etadi. Ma’lumki, qaysi til ma’noni qisqa yo‘l bilan ifodalay olsa, shu til rivojlangan til hisoblanadi. O‘zbek tilining rivojlangan til ekanligini shoir zaruriy misollar bilan ko‘rsatib beradi. Masalan, o‘zbek tilida birgalik nisbat qisqagina -sh affiksi orqali yasaladi: „va masdarg‘a bir shin harfi ilhaq qilmoq bila ul maqsudni topibdurlar. Andoqki chopishmoq va topishmoq va quchushmoq va o‘pushmoq va bu shoye lafzdur“. Forslar bu ma’noni so‘z birikmasi orqali ifodalaydilar. Navoiy shaxs oti yasovchi qo‘shimchaning xususiyatini 30 ga yaqin so‘z misolida isbotlab (qo‘rchi, suvchi, nayzachi, yurtchi, qushchi, barschi, qo‘ychi,

turnachi, kiyikchi va h.k.), o‘zbek tilining so‘z yasash va fikr ifodalash jihatidan ham o‘ziga xos imkoniyati mavjudligini ko‘rsatgan.

### Asosiy qism

Navoiy o‘zbek tilining boyligi va qudratini, ifodaviy imkoniyatini asosli tahlil etib, quyidagi xulosaga keladi: o‘zbek tilida bu xildagi nozik ma’noli suz va iboralar ko‘p, ammo „bu kunga degincha hech kishi haqiqatig‘a muloxaza qilmog‘on jihatidan bu yashurun qolibdur... hunarsiz turkning sitam zarif yigitlari osonliqqa bo‘la forsiy alfoz bila nazm ayturg‘a mashg‘ul bo‘lubturlar“. Shuning uchun Navoiy o‘zbek shoirlarini o‘z tilida ijod qilishga da‘vat etadi[3]. Alisher Navoiy so‘zlarning ko‘p ma’noliligi, sinonimlar jihatidan ham o‘zbek tilining imkoniyati kengligini, ularning she’riyatda turli nozik ma’nolarni ifodalashdagi ahamiyatini (ot, it, tush, yon, yoq, bor, sog‘in, tuz, ko‘k kabi so‘zlar talqinida) ko‘rsatadi. Navoiy grammatik jihatdan ham o‘zbek tili fors tiliga nisbatan ba’zi imkoniyatlarga ega ekanligini tahlil etadi. Ma’lumki, qaysi til ma’noni qisqa yo‘l bilan ifodalay olsa, shu til rivojlangan til hisoblanadi. O‘zbek tilining rivojlangan til ekanligini shoir zaruriy misollar bilan ko‘rsatib beradi. Mas, o‘zbek tilida birgalik nisbat qisqagina -sh affiksi orqali yasaladi: „va masdarg‘a bir shin harfi ilhaq qilmoq bila ul maqsudni topibdurlar. Andoqki chopishmoq va topishmoq va quchushmoq va o‘pushmoq va bu shoye lafzdur“. Forslar bu ma’noni so‘z birikmasi orqali ifodalaydilar. Navoiy shaxs oti yasovchi qo‘shimchani xususiyatini 30 ga yaqin so‘z misolida isbotlab (qo‘rchi, suvchi, nayzachi, yurtchi, [4]ushchi, barschi, qo‘ychi, turnachi, kiyikchi va h.k.), o‘zbek tilining so‘z yasash va fikr ifodalash jihatidan ham o‘ziga xos imkoniyati mavjudligini ko‘rsatgan. [O‘zbek tilida ko‘proq ishlatiladigan "may ichmoq" fe'lini poetikada qo'llasa she'r nihoyatda jo'n va ta'sirsiz bo'lishini, agar uning o'rniga tilimizda mavjud bo'lgan, biroq iste'molda kam uchraydigan "sipqarmoq" so'zi bilan ifodalasa, oshiqning ilohiy muhabbatini yanada kuchliroq tasvirlash borasida yuksak darajadagi mubolag'a san'ati yuzaga keladi va baytning mazmuni yanada ortadi, deydi shoir. So'zining isboti tariqasida ushbu matla'ni keltiradi: Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o'zumdin boray, Shart bukim, har necha tutsang labo-lab sipqaray.

"Ichmoq" so'zining yana bir sinonimi "tomshimoq"ki, shoirning ta'kidlashicha, buning ma'nosi g'oyat zavqdan birdan ichilmas, lazzat topa-topa, oz-ozdan ichilar. Bu g'arib ma'ni adosida turkchada bu matla' bordir: Soqiy chu ichib, manga tutar qo'sh: Tomshiy-tomshiy ani qilay no'sh. Biroq ushbu so'zlarning forsiy tilda aynan muqobili bo'lmaganligi bois she'rda qo'llashlarining iloji yo'qligini ta'kidlaydi.[5] Navoiy nazdida oshiqlikda "yig'lamoq"dan ortiq darajadagi va doimiy amr yo'q. Ammo turkiy tilda "yig'lamsinmoq", ya'ni yig'lamsiramoq mazmunidagi so'z mavjud. Oshiq chin yurakdan to'yib-to'yib yig'lashni istaydi, lekin ko'ziga yosh kelmaydi, o'z holatini boshqalarga ko'rsatishdan istehzo qiladi. Shu o'rinda yig'lamsiramoq fe'lini qo'lalash orqali oshiqning kechinmalarini bayon qilish mumkinligi quyidagi baytdan ko'rinib



turibdi: Zohid ishqin desaki, qilg'ay fosh, Yig'lamsinuru ko'ziga kelmas yosh.Navoiy "yig'lamoq" fe'lining dard bilan yashurun ohista, ovoz chiqarmasdan yig'lamoq ma'nolarini bildiruvchi "ingramoq" va "singramak" sinonimlarini ham keltiradi, ular orasida unchalik katta farq bo'lmas-da, tabiiyki quyidagi baytda oshiqning kechinmalarini aniq va ravshan tasvirlashda bu so'zlarning ahamiyati nechog'lik yuqori ekanligi aks etib turibdi:Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak, Kechalar gah ingramakdur odatim, gah singramak.Shoir "yig'lamoq" fe'lining nihoyatda bo'rttirilgan mubolag'ali "siqtamoq" muqobili ham mavjud bo'lib, bu so'z orqali oshiq holatini to'laligicha anglash mumkinligini tasvirlaydi:Ul oyki, kula-kula qirog'latti meni, Yig'latti meni demayki, siqtatti meni."Yig'lamoq" fe'lining yana bir sinonimi "o'kurmak" hisoblanib, unda o'ta kuchli ovoz bilan ma'lum bo'lmagan, mo'tadil sanalmagan, o'zini idora qilolmaydigan darajadagi holatni badiiy tarzda ifodalanishini quyidagi bayt misolida ko'rsa bo'ladi:Ishim tog' uzra har yon ashk selobini surmakdur. Firoq oshubidin har dam bulut yanglig' o'kurmakdur. Shoirning ta'kidlashicha, ushbu qayd qilib o'tgan so'zlarni birortasining ham forsiy tildagi munosib muqobalasi yo'q.Alisher Navoiy o'z davrida forsiy tildagi she'riyatning keng ko'lamda ravnaq topganligini, biroq turkiy tildagi poetikaning nisbatan sustroq rivojlanganligi masalasiga e'tiborini qaratadi va buning asosiy uchta sababini ta'kidlab o'tadi.[6] Navoiyning fikricha, bunday sabablarning birinchisi, turkigo'y ijodkorlar ona tilining boyligi va nozikligini bildiruvchi bir necha ma'noga ega so'zlar, murakkab ibora va ifodalar ko'p bo'lganligidan ularni puxta tushinib, she'riyatda mahorat bilan ishlatishdek mehnatdan cho'chib, mushkilliklardan oson yo'lga tushib olishlaridir. Ikkinchisi, ba'zi bir iste'dodli san'atkorlarning davrdagi hukmron traditsiya doirasida bo'lishlikni o'zlariga munosib deb bilishliklaridir. Uchinchisi esa yosh ijodkorlar yengil yo'l tutib, o'z ijod namunalarini tajribali forsiyzabon ustozlarga ko'rsatib e'tirof yoki tahsin kutishlari, bunday ustozlarning turkiy tildan bebahra ekanliklari tufayli ular, ya'ni yosh qalamkashlar turkiyga emas, forsiyga mayl ko'rgazishlaridir.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda ushbu asarni tahlil qilgan jarayonda Navoiy ijod ahillarini qachonlardir o'z ona tilining purma'no, rangih jilolarini aniq va yaxshi idrok etishiga ishonadi. Buni "Muhokamat ul-lug'atayin"da shoirning quyidagi e'tirofi tasdiqlab turibdi: "...dono hakam adolat yuzidin ko'z solsa va burungi forsiy va so'nggi turkiy latoyif va daqoyiqidin bahra olsa... har qaysining martabasini ta'yin qilur avonida umidim uldur va xayolimga andoq kelurkim, so'zum martabasi avjdin quyi inmagay va bu tartibim kavkabasi a'lo darajadin o'zga yerni beganmagay".Ha, Alisher Navoiyning tilimiz imkoniyatlaridan foydalanish borasidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z mohiyatini saqlab qolmoqda.Undagi rango rang ma'noviy jihatlar asarning mazmun jihatini yoritgan desak adashmagan b'lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Алишер Навоий МАТ. 16-том. - Т.: "Фан", 2000.
2. "Alisher Navoiyning badiiy mahorati masalalari" (maqolalar to'plami). -Т.: "Fan", 1993.
3. Рустамов А. Алишер Навоий ва она тилимиз. -Т.: "Fan", 1992.
4. Вохидов Р. Навоий бархаёт. -Т.: "Фан", 1991.
5. Исхрков Ё. Навоий лирикасида рухий тасвир ва тахлил. . -Т.: "Fan", 1991.
6. Навоий ижодий меросини урганиш проблемалари. -С.: "СамДУ",1990